

## KASB TANLASHDA SHAXS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISHNING AHAMIYATI

**Abdullaeva Ranajon Matyoqubovna**

Nizomiy nomidagi O'zMPU Psixologiya kafedrası dotsenti,  
ps.f.n. Tel: +998935622308

**Sadikova Rejap Satvoldiyevna**

O'sh davlat universiteti, Psixologiya  
kafedrası katta o'qituvchisi (Kirgiziston)  
Tel: +996550202815

**Annotatsiya:** Maqolada har bir yoshning bo'lg'usi kasbini to'g'ri tanlashida asosan uning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi tahlil etilgan. Yoshlarning kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy faoliyat, individual xususiyat, yosh davrlari xususiyatlari, qobiliyat, intellektual daraja, professiogramma, reoriyentatsiya, ehtiyoj, motiv, motivatsiya.

## ЗНАЧЕНИЕ УЧЕТА ЛИЧНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ПРИ ВЫБОРЕ ПРОФЕССИИ

**Аннотация:** В статье анализируется необходимость учета индивидуальных особенностей каждого молодого человека при правильном выборе будущей профессии. Обосновывается, что вопрос отношения молодежи к профессии, ее становления как специалиста и профессиональной зрелости имеет социально-экономическое значение.

**Ключевые слова:** профессиональная деятельность, индивидуальные особенности, возрастные особенности, способности, интеллектуальный уровень, профессиограмма, переориентация, потребность, мотив, мотивация.

## THE IMPORTANCE OF CONSIDERING PERSONAL CHARACTERISTICS IN CHOOSING A PROFESSION

**Abstract:** The article analyzes the need to take into account the individual characteristics of each young person in the correct choice of his future profession. It is substantiated that the issue of young people's attitude to the profession, their formation as a specialist and their professional maturity is of socio-economic importance.

**Keywords:** professional activity, individual characteristics, characteristics of age periods, abilities, intellectual level, professioniogram, reorientation, need, motive, motivation.

Kadrlar salohiyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mutaxassislarining kasbiy shakllanishini va ularning kamolotini ta'minlash jamiyat oldidagi eng asosiy muammolardan biri sanaladi.

Kasbiy faoliyatni turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiyligni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi.

Oliy o'quv yurti talabalarining kasbga munosabati, mutaxassis sifatida shakllanishi va kasbiy kamoloti masalasi juda katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, bevosita uning ilmiy, ma'naviy, moddiy salohiyatini, ichki va tashqi siyosatini belgilaydi. Bu esa talabalarining shu kasblarga o'zlarining xoxish-istaklarining mavjudligi, ulardagi qobiliyatlarning namoyon bo'lishi hamda ijtimoiy muhitda shaxsga bildirilgan munosabat bilan ham belgilanadi. Shu boisdan har bir talabaga shaxsning kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan mutaxassislikka oid bilimlarini berish, kerakli uquvlarni shakllantirish va ko'nikmalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarga esa maktab davridanoq professiografiya va uning mohiyati haqida tushuncha berish, turli kasblarning shaxs oldiga qo'yadigan talablarini keng tarzda tushuntirish, kasbga yo'llashning tarkibiy qismlari bo'lmish kasb maorifi, kasbiy saralash, kasbiy moslashish, kasbiy kamolot masalalarini yetarlicha o'rgatilishiga ahamiyat berish lozim. Shuningdek hozirgi zamon kasblar dunyosi hamda kasbiy faoliyatni tashxis qilish usullarini o'quvchilarga tatbiq qilish uchun mutaxassislar tomonidan metodikalarning to'g'ri qo'llanilishiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning kasb tanlashi asosan o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra pedagoglar jamoasi bilan birga mutaxassis psixologlar oldida turli yoshdagi va turli jinsdagi o'quvchilarni kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi. Mutaxassislar, shuningdek, o'quvchilarning aql idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, aqliy salohiyat mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari hamda, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Talaba shaxsining kasbiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni ham alohida o'rganilishi zarur hisoblanadi. Bularning barchasi shaxsning kamolotini belgilovchi omillar bo'lib, ular o'zaro bir-biri bilan uyg'un holdagina samarali natijaga erishiladi. Oliy ta'limga o'qishga topshirguniga qadar o'quvchi o'z kelajagini to'g'ri tanloviga o'zi ishonch hosil qilishi lozim. Tanlov amalga oshirilgach yuqori shijoat bilan sohaga tegishli ma'lumotlarni o'zlashtirishga o'zini yo'naltirishi, oliy ta'limdagi yo'riqnomalardan unumli foydalanishi lozim bo'ladi. Bu borada tanlangan kasb va undagi shaxsiga xos individual xususiyatlarni ham ajrata olishi zarur. Individual xususiyatlardan - temperamenti, xarakteri, qobiliyatlari, aqliy salohiyati, layoqati kabilarga alohida e'tiborli bo'lish lozim. Bu kabi xususiyatlarni to'g'ri ajrata olishida amaliyotchi psixologlarning o'rni va maslahatlari alohida ahamiyatlidir. Oila muhitida esa ota-onalar avvalo o'z

farzandlarining nimalar bilan qiziqishlarini kuzatishi va uni rivojlantirishlari uchun sharoit yaratib berishlari lozim. Shuningdek kasbga qo'yiladigan talablar- ya'ni professiogrammani anglashga o'rgatilishi lozim.

Professiografiya deganda kasblar va ularning bir - biridan farqlanuvchi ixtisosliklar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi. Kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik ularda tanlagan kasbga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: o'quv materiallarini, umuman ta'limni hayot bilan bog'lash; ma'lumotlarni o'zlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish; o'tgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobiy zamin hozirlash; istiqbol rejani muvofiqlashtirish va bosqichning yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish; o'quv-uslubiy qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari o'rtasidagi uzviylikni yo'qotish; kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi bo'lib, ishdagi muvaffaqiyatlar o'ziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish. Professiogramma oldiga qo'yiladigan quyidagitalablarning mazmun-mohiyatini anglash, ya'ni:

1. Ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi;
2. Ishning maqsadi, samaradorligi xususida ma'lumotlar;
3. Mehnat quroli sifatida nimalar qo'llanilishi;
4. Mehnat predmetining tarkiblari va ularning o'ziga xos jabhalari;
5. Mehnat faoliyati qaysi usullar yordami bilan bajarilishi;
6. Nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat amalga oshirilishi);
7. Mehnat mahsullarini baholash mezonlari;
8. Ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari.
9. Ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi.
10. Ishning bajarilish shart va sharoitlari;
11. Mehnatni (faoliyatni) tashkil qilish shakllari;
12. Mehnatning kooperatsiyasi (Kim?, Nima?, Kim bilan hamkorlikda?);
13. Mehnatning jadalligi (intensivligi) to'g'risida ma'lumotlar;
14. Mehnat faoliyatida mas'uliyatning va xavf - xatarning qaysi daqiqalari (holatlari) uchrashi;
15. Mehnat uning sub'yektiga qanday foyda, naf keltirishi (ish haqi, mukofot, ma'naviy ozuqa, imtiyoz, ijtimoiy moyillik, altruizm xislati, maqtov, jamoatchilik bahosi va boshqalar);
16. Ish yoki faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qanday talablarga va cheklanishlarga ega ekanligi.

Shuningdek, bugungi kundagi dolzarb hisoblanayotgan qayta kasbga yo'llash (reoriyentatsiya) jarayonida ham quyidagi omillar hisobga olinishi lozim:

1. Shaxsning fazilatlar, xarakterologik xislatlari.
2. Hissiy jabhalari va irodaviy sifatleri.
3. Insonning kognitiv va regulativ imkoniyatlari.
4. Ehtiyoji, motivi, motivatsiyasi, motivirovkasi.
5. Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
6. Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yaroqliligi.

7. Iqtidori (iste'dodi), qobiliyati, salohiyati.
8. Kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, mahorati.
9. Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e'tiqodi).
10. Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.
11. Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati.
12. Ijtimoiy yetukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
13. Ekstrovertligi va introvertligi.
14. Yuksak insoniy tuyg'ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik) egaligi.
15. Fidoiylilik, altruistik, vatanparvarlik fazilatlarini ustuvorligi va boshqalar.

Mazkur mezonlar bo'yicha turli xil metodlar, metodikalar, trening mashg'ulotlari va ishbilarmonlik o'yinlari orqali shaxs o'rganilib, yetarlicha tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim. Shaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya'ni shaxsning bilish qobiliyatlari, aql-idroki, aql-zakovati, individual - tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo'li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqliligi to'g'risida aniq fikr bildirish, muayyan tavsiyalar berish mumkin bo'ladi. Zero tanlangan kasb egasiga o'zidan qanoatlanib yashash va xizmat pillapoyalarini egallash imkonini olib kelsin. Umuman ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish zarur. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetsin. Umuman, kasbga yo'llash jarayonida shaxsning individual - tipologik xususiyatlari va his - tuyg'ularini, layoqat, iste'dodini hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan boyitish ularning kasb-hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo'yiladigan professiogramma talablariga moslashishlariga imkon beradi. Barchasini to'g'ri yo'lga qo'yishda psixologik xizmatni xodimlarining hissasi kattadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'oziyev E.G', Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.2013. 103 b.
2. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b
3. Abdullayeva R.M. Yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish ijtimoiy voqelik sifatida. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 11 | Nov - 2022 ISSN: 2181-2608. 436-438 b. www.sciencebox.uz.
4. Abdullayeva R.M. REQUIREMENTS FOR CHOOSING A PROFESSION. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 2150-2153.